

**DAVLAT TILI DARSLARIDA NUTQIY VA LINGVISTIK KOMPETENSIYALAR
MUTANOSIBLIGINI TA’MINLASH ASOSLARI
(Ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktablar misolida)**

Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universitetining mustaqil izlanuvchisi
irodaxojiyeva249@gmail.com
ORCID: 0009-0001-6197-7830

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18944041>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari Jim Cumminsning bilingvizm nazariyasiga tayanilgan holda tadqiq etiladi. Xususan, BICS (Basic Interpersonal Communicative Skills –kundalik muloqot ko‘nikmalari) va CALP (Cognitive Academic Language Proficiency – kognitiv akademik tilni egallash darajasi) tamoyillari asosida tojik tilli o‘quvchilarning tabiiy-ijtimoiy muhitda shakllangan nutqiy ko‘nikmalari tahlil qilingan. Maqolada amaldagi o‘quv dasturlari va darsliklarda ushbu kompetensiyalarning aks etishi, shuningdek, lingvistik kompetensiyani shakllantirishda o‘quvchilarning mavjud nutqiy tajribasidan samarali foydalanish metodologiyasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, BICS, CALP, Jim Cummins, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, tojik tili, ta’lim metodikasi, akademik til.

Аннотация. В данной статье на основе теории билингвизма Джима Камминса (Jim Cummins) исследуются вопросы развития речевых и лингвистических компетенций учащихся школ с таджикским языком обучения. В частности, на базе принципов BICS (Basic Interpersonal Communicative Skills — базовые навыки межличностного общения) и CALP (Cognitive Academic Language Proficiency — когнитивная академическая языковая компетентность) анализируются речевые навыки учащихся, частично сформированные в естественно-социальной среде. В работе рассматриваются вопросы отражения данных компетенций в действующих учебных программах и учебниках, а также освещаются методологические основы использования речевого опыта учащихся при формировании лингвистической компетенции.

Ключевые слова: билингвизм, BICS, CALP, Джим Камминс, речевая компетенция, лингвистическая компетенция, таджикский язык, методика обучения, академический язык.

Abstract. This article examines the development of speech and linguistic competencies among students in schools where instruction is conducted in the Tajik language, based on Jim Cummins' theory of bilingualism. Specifically, the principles of BICS (Basic Interpersonal Communicative Skills) and CALP (Cognitive Academic Language Proficiency) are utilized to analyze students' communicative abilities partially developed within their socio-natural environments. The study explores how these competencies are integrated into current curricula and textbooks, while also highlighting the methodological foundations for leveraging students' existing speech experiences to foster linguistic competence.

Keywords: bilingualism, BICS, CALP, Jim Cummins, speech competence, linguistic competence, Tajik language, teaching methodology, academic language.

Jahon mamlakatlari ichida ikkinchi tilni o‘zlashtirish – Second Language Acquisition (SLA) masalasi sifatida keng o‘rganilgan.

Xususan, o‘quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarning o‘zaro mutanosibligini J.Cummins o‘zining bilingvizm nazariyasidagi BICS (Basic Interpersonal Communicative Skills) va CALP (Cognitive Academic Language Proficiency) konsepsiyalari orqali quyidagicha asoslaydi: o‘quvchi, ayniqsa, tabiiy muhitda ikkinchi tilni o‘zlashtirar ekan, u BICS – kundalik muloqot ko‘nikmalarini tez egallaydi va nutqda tezkor qo‘llay oladi, ammo gaplarning morfologik tahlili, qo‘shimchalarning ketma-ket ulanishi va akademik yozma nutqni talab qiluvchi CALP – kognitiv akademik til kompetensiyalarini kechroq, tizimli o‘qitish natijasida o‘zlashtiradi [1].

Jumladan, ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktab o‘quvchilarida ham xuddi shunday kundalik muloqot (BICS) ko‘nikmalari rivojlanganligi kuzatilsa-da, yozma nutqda lisoniy

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

kompetensiyalar yetarli emasligi (CALP), kognitiv akademik tilga oid xatoliklar mavjudligini ko‘ramiz.

Bu masalani J.Cummins o‘zining “Dual iceberg” – “Muztog‘ modeli” asosida yanada aniq tushuntiradi [2].

Unga ko‘ra, til ikki qismga bo‘linadi va buni “muztog‘ modeli”ga ramziy ma‘noda quyidagicha qiyoslash mumkin: “Muztog‘ning suv ustidagi qismi bu – o‘quvchilarning ko‘cha, do‘stlar va oila davrasida erkin ishlatadigan qismi, ya‘ni bilingualizm nazariyasidagi BICS (Basic Interpersonal Communicative Skills) konsepsiyasi, yoki kundalik muloqot ko‘nikmasi sanaladi” [2].

Bu ko‘nikmani egallash uchun 2 yil ham yetadi, ba‘zan o‘zlashtiruvchilar kundalik ehtiyojning yuqoriligiga qarab undan ham qisqa muddatda egallaydi.

Ikkinchi qism esa “Muztog‘ning suv ostidagi qismi bo‘lib, bu – tilning struktur, grammatik jihatini egallash hisoblanadi” [2]. J.Cumminsning bilingvizm nazariyasiga ko‘ra esa CALP (Cognitive Academic Language Proficiency) konsepsiyasidir. Unda murakkab grammatik shakllarni tushunish, morfologik va sintaktik tahlillarni amalga oshirish lozim bo‘lib, tizimli ravishda, ma‘lum o‘quv materiallari orqali o‘qitish jarayonida yuzaga chiqadi. Shu bois bu qismni shakllantirish 5 yildan 7 yilgacha davom etishi ham mumkin.

Demak, aniqlandiki, ta‘lim tojik tilida olib boriladigan maktab o‘quvchilarida o‘zbek tilini bilishning nutqiy kompetensiya (BICS) darajasi qisman ijtimoiy muhit natijasida shakllangan, lekin kognitiv akademik til materiallari bilan ishlash rivojlanmagan.

Mazkur holat esa nutqiy va lingvistik kompetensiyalar o‘rtasida nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi. Ya‘ni o‘quvchi o‘zbek tilida ravon gapira oladi, tushunadi, turli vaziyatlarda o‘zbek tilida fikrini bayon qila oladi, ammo lingvistik nuqtayi nazardan turli morfologik tahlillar, sintaksik gap qurilishini tushunmaydi. Bu esa o‘quvchida kundalik muloqot ko‘nikmalarining mavjudligi uning akademik til materiallaridan ham xabardorligini anglatmaydi.

O‘quv dasturi va darsliklarda esa ta‘lim boshqa tilda olib boriladigan maktab o‘quvchilariga asosiy talab sifatida o‘zbek tilida ravon gapirish va o‘z fikrini grammatik me‘yorlar asosida yozma nutqda ifodalash belgilangan.

Bu haqida umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturi loyihasida quyidagicha bayon qilingan: “O‘zbek tili fani faqat grammatik me‘yorni o‘rgatuvchi fan sifatida emas, balki o‘quvchining ixtiyoriy mavzudagi, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunishiga, to‘g‘ri o‘qishiga, orfoepik va orfografik me‘yorlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fandır. O‘quvchi mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashi uchun o‘zbek tili darslarida tinglab, ko‘rib va o‘qib tushunishga e‘tibor qaratiladi. O‘zbek tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi o‘zbek tilida o‘z fikrini belgilangan darajalar asosida mustaqil bayon eta oladi. O‘zbek tilini mukammal o‘zlashtirgan o‘quvchi o‘zbek tilida beriladigan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy (kreativ) fikrlash orqali olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan elementlar orqali amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga singdirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bunda matnni tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlash, munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi” [3.]

Shuningdek, “O‘zbek tili” o‘quv dasturining tuzilishi bo‘yicha quyidagi ma‘lumotlar beriladi: “Jamiyat pedagogika ilmi va amaliyoti oldiga umumiy o‘rta ta‘limni dunyo andazalari darajasiga ko‘tarish talabini qo‘ymoqda. Ushbu “O‘zbek tili” dasturi keyingi talablar asosida qayta ishlab chiqildi. Bunda umumiy o‘rta maktab o‘zbek tili ta‘limi 2-4-sinflar darajasida boshlang‘ich, 5-9-sinflar qamrovida tayanch hamda 10-11-sinflardan iborat o‘rta singari uch bosqichdan iborat ekani ko‘zda tutildi. Ta‘lim o‘zga tilda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili 2-4-sinflar darajasida boshlang‘ich, 5-9-sinflar qamrovida tayanch hamda 10-11- sinflardan iborat o‘rta shaklida tashkil etilishi mo‘ljallandi. Bunga ko‘ra, o‘quv dasturlarida o‘quvchilarga o‘rgatiladigan grammatik va badiiy matnlar xronologik yoki janriy belgilariga qarab emas, balki umumlashtiruvchi ruknlar bo‘yicha joylashtirildi. Har bir sinfda to‘rttadan rukn va ushbu ruknlar mavzusiga mos turli davrlarda, turli mualliflar tomonidan yaratilgan, o‘quvchilarni yoshi va fiziologik hususiyatlari inobatga olinga grammatik, nutqiy va badiiy mavzular tavsifiya qilindi. Ta‘lim o‘zga tilda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili 2-4-sinflar boshlang‘ich darajada yillik 68 soatni tashkil etib, bunda o‘quvchi yoshiga mos mavzular rasmlar, turli usullar yordamida grammatik mavzular, mavzu asosida matnlar va badiiy o‘qish uchun bir qancha maqol, tez aytilish, topishmoq va she‘rlar taqdim etiladi. 2-sinf darsigi bilan o‘quvchining ish daftari taqdim etiladi. Ta‘lim o‘zga tilda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili 5-

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

11-sinflar qamrovida yillik 102 soatni tashkil etib, bunda grammatik mavzular, mavzu asosida matnlar va badiiy o‘qish uchun o‘quvchi yoshiga mos mavzularda taqdim etiladi” [3.1].

Lekin o‘quv dasturi asosida yaratilgan darsliklar mazmuniy tuzilishiga qarasa, ba’zi o‘rinlarda asosiy e’tibor nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan, lingvistik kompetensiya elementlari esa tarqoq holda berilgan.

Ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktab o‘quvchilarida esa nutqiy kompetensiyalar asosida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish zarurari mavjud. Sababi ularda kundalik muloqot ko‘nikmalari ijtimoiy muhit ta’sirida avvaldan mavjud, ammo lingvistik kompetensiyalar talab darajasida emas.

Bunday nomutanosiblik esa, avvalo, o‘quvchilarni baholash tizimida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, o‘quvchi ma’lum topshiriqni og‘zaki tarzda, talab darajasida bajarishi mumkin, lekin yozma nutqda qo‘shimcha qo‘llash, morfologik va sintaktik tahlillar, so‘z turkumlari va gap bo‘laklariga ajratish, gapdagi so‘z tartibiga rioya qilishda sezilarli xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.

Mazkur nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun S.Krashen taqdim qilgan i+1 tamoyilidan foydalanish maqsadga muvofiq [4].

Uning ta’kidlashicha, o‘quvchiga taqdim qilinayotgan material u biladigan darajadan bir pog‘ona yuqori bo‘lishi lozim.

Jumladan, ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktab o‘quvchilarida kundalik muloqot ko‘nikmasining mavjudligi ularda nutqiy kompetensiyaning hayotiy vaziyatlarda mavjudligini ko‘rsatadi, shu bois ularga muloqot qilishga doir topshiriqlarni berish qisman maqsadga muvofiq emas, ya’ni gapirish ko‘nikmasini adabiy til nuqtayi nazaridan rivojlantirish mumkin, ammo topshiriqlarda, asosan, kundalik suhbat mavzularidan foydalaniladi (“Bozorda”, “Maktabda”).

Bunday o‘quv materiallarining taqdim qilinishi o‘quvchining shundoq ham o‘zi biladigan ko‘nikmalarni takrorlashiga o‘xshaydi.

Shu bois ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktab o‘quvchilariga taqdim qilinadigan o‘quv materiallari ular o‘zlari egallab turgan darajadan bir pog‘ona yuqori bo‘lishi, ularning o‘zbek tilida Jim Cumming ta’kidlagan CALP malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunday materiallar o‘z ichiga sintaktik, morfologik tahlillar, so‘z qo‘llash bilan bog‘liq topshiriqlarni qamrab olishi lozim, bu topshiriqlar lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Aks holda tojik tili o‘quvchilar o‘zbek tilida ravon gapirib, yozma nutqda savodsizligicha qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cummins, J. Cognitive/academic language proficiency, linguistic interdependence, the optimum age question and some other matters. Working Papers on Bilingualism, No. 19, - 1979 – pp. 121–129.
2. Cummins, J. The Role of Primary Language Development in Promoting Educational Success for Language Minority Students – 1981.
3. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi loyihasi. O‘zbek tili. 2020. 5-b.
4. Krashen, S. The Input Hypothesis: Issues and Implications: Laredo Publishing Company / Longman, 1985. – 120 p.